

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISH, "YASHIL TA'LIM" DASTURINI YO'LGA QO'YISH**

Kuchkorova Nurjahan

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi 2-bosqich magistratura talabasi

Email: nurjahanbegmurodovna@gmail.com

Telefon raqam: +998 94 494 82 32

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunimizda butun dunyo bo'ylab global muammoga aylangan ekologik inqiroz va ushbu holatga sabab bo'layotgan omillar biroz ochiqlab o'tilgan. Shuningdek, ekologik ta'limni boshlang'ich sinf o'quvchilariga to'laonli yetkazish va "Yashil ta'lim" dasturini maktablarda yo'lga qo'yish haqida taklif berilgan.

Abstract. In this article, the environmental crisis, which has become a global problem in the world today, and the factors that cause this situation, are explained in a somewhat clear way. It was proposed to launch "Green education" program in schools.

Абстрактный. В этой статье достаточно ясно объясняются экологический кризис, который сегодня стал глобальной проблемой в мире, и факторы, вызывающие эту ситуацию. Предлагалось запустить в школах программу «Зеленое образование».

Kalit so'zlar. Ekologik madaniyat, ekologik muammo, "Yashil ta'lim" dasturi, ekologik mas'uliyat, interaktiv ta'lim.

Key words. Ecological culture, environmental problem, Green Education program, environmental responsibility, interactive education.

Ключевые слова. Экологическая культура, экологическая проблема, программа "Зеленое образование", экологическая ответственность, интерактивное образование.

KIRISH

Bugungi kunda ekologik ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. 21-asrda insoniyat juda katta yutuqlarga erishdi va har bir sohada misilsiz natijalarni qo'lga kiritdi. Lekin, bu yutuqlar bilan birgalikda muammolar ham chekinib qolayotgani yo'q. Tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi va kunimizda ro'y berayotgan ekologik muammolar insoniyatda ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirishni talab qilmoqda. Ushbu muammoning yagona yechimi barchamiz birgalik harakat qilib muammoga qarshi kurashishdir. Shu maqsadda, ekologik ta'limni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbiiq etish va ularning ekologik madaniyatini yuksak

darajada shakllantirish lozim. “Yashil ta’lim” dasturi ham aynan mana shu maqsadga qaratilgan bo’lib, bolalikdan tabiatni asrash, ekologik muammolarga yangicha yondashish va kreativ g’oyalarni ishlab chiqishga undaydi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun “Yashil ta’lim” dasturining ahamiyati shundaki, hayotining ilik bosqichlaridan ular tabiat resurslaridan qanday foydalanishni va tabiatga nisbatan mas’uliyatni shakllantiradi. Bu esa o’quvchilarni kelajakda ekologik madaniyatli hamda tabiatga mas’uliyatli shaxs bo’lib voyaga yetishiga zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

(RESEARCH METODOLOGIY /LITERATURE)

Boshlang’ich sinflarda “Yashil ta’lim” ta’lim dasturini amalga oshirish bugungi kunda dolzarbligicha qolayotgan ekologik muammolarning yanada rivojlanib ketishini oldini oladi. Bolalarda ekologik ongni shakllantirish, tabiatni asrash ko’nikmasini hosil qilish iqlim o’zgarishiga munosabatni o’zgartirishda samarali vosita hisoblanadi. Gunay I. Hasanova va Zohra I. Mahmudovalar boshlang’ich sinf o’quvchilari ekologik bilimlarni o’zlashtirganda ular atrof-muhitga bo’lgan mas’uliyatni angelaydi va jamiyatda baqaror rivojlanishga hissa qo’shishga tayyor bo’ladi deya takidlaydi.¹


“Yashil ta’lim” dasturida atrof-muhitni asrash va resurslardan to’g’ri foydalanish masalalarini zamonaviy metodlardan foydalangan holda yetkaziladi. Masalan, avvaldan tuzilgan loyiha asosida, guruhli ishlarga jalb qilish, tabiat qo’ynida sayrga chiqish va boshqa shunga o’xshash vazifalar amalga oshiriladi. Buyuk mutaffakkir Abu Nasr Farobiy tabiri bilan aytadigan bo’lsak, har qanday tarbiya amaliyot bilan amalga oshirilsagina ko’zlangan maqsadga erishiladi. Huddi shu kabi ekologik ta’lim ham faqatgina nazariy bilm bilan cheklanmaydi, o’quvchilarda amaliy ko’nikmalarni shakllantirish muhimdir. O’quvchilarga ekologik ta’limni maktabga kelgan vaqtdan o’rgatish faqatgina bitta jamiyat uchun emas butun bir yer yuziga foyda keltiradi.

Gordon (2010) yashil maktablarning afzalliklarini o’rganib, ularning ta’lim muhitini optimallashtirish, resurslar samaradorligini oshirish va atrof-muhitni asrashdagi muhim roliga alohida to’xtalib o’tadi.²

“Yashil ta’lim” dasturi sinfda boshlanadi, maktabgacha tarqaladi va oxirida esa jamiyat o’zgarishiga juda katta yordam beradi. Bu dastur maktabda va jamiyatda atrof muhitni yaxshilash, kelajak avoldga tabiatni tabiiy holatda yetkazish uchun amalga oshirilishi kerak bo’lgan g’oyadir.

¹ Hasanova G.I., Mahmudova Z.I. (2024) Green schools: A brief review. Green economics, 2(2), 178-183
<https://doi.org/10.624/ge22.178>

² Green economics, V.2, N.2, 2024



“Yashil ta’lim” dasturini yuqorida keltirilgan jadvaldan foydalangan holda amaliy mashg’ulotlar o’tkazamiz. Albatta, bu jarayonda o’quvchilar interaktiv usulda tabiat bilan yanada yaqin bo’lishadi, uni asrash mas’uliyati paydo bo’ladi. Yashil ta’lim dasturining sinov muddati bir yilni tashkil etadi. Tadqiqot davomida sherikchilik ya’ni hamkorlikda ishlash ko’nikmasi ham shakllanadi. Har bir o’quvchi maktabida o’zi uchun ajratilgan maydoncha uchun mas’ul bo’ladi va unga o’qituvchi rahbarligida turli daraxtlar ekib jarayonni o’rganadi. Yil yakunida qilingan ishlar sarhisobi bo’ladi. O’quvchilarni “Yashil ta’lim”ga qiziqtirish uchun natijalarga qarab ularga turli nominatsiyalarda maqto’v va faxriy yorliqlar topshiriladi. Misol uchun, “Yilning eng yaxshi yosh bog’boni“, “Tabiat posboni“, “Eng kreativev jamoa“ va shu kabilar. Rag’batlantirishlar natijasida esa o’quvchilar yanada faol bo’lishga intilishadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Ushbu amalga oshirilgan ta’lim dasturi yil yakunida analiz qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ekologik madaniyatni boshlang’ich sinflarda rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotdan olingan natijalar ekologik ta’limni amalga oshirishning samaradorligini va o’quvchilarning ekologik faolligini oshirishda “Yashil ta’lim” dasturining ahamiyatini ko’rsatadi. O’quvchilardan turli

shakllarda so'rovnomalar o'tkaziladi. Masalan, test va anketa savollari yordamida ekologik bilimlari va amaliy jarayonidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot so'ngida o'quvchilar ekologik muammolarni hal qilishda kreativ fikrlari bilan faol bo'lishadi. O'quvchilarning tahminan 70-75 %i tabiatga foyda keltirish, uni asrash, turli shisha va plastik chiqindilarni ajratish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bolishadi. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni samarali amalga oshirish uchun ularga ekologik bilimlarni kreativ usullar bilan o'rgatish, jamoaviy ishlashni shakllantirish, ekologik mas'uliyatni rivojlantirish uchun amaliy ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

MUHOKAMA VA XULOSA (DISCUSSIN AND REFERENCE)

Yashil ta'lim dasturi boshlang'ich sinflar uchun ekologik ongni rivojlantirish va atrof-muhitni asrash hamda uni sevishtirish mas'uliyatini shakllantirish yo'lida samarali vosita bo'ladi. Ushbu loyiha orqali o'quvchilarga tabiatni sevishtirish, chiqindilarni to'g'ri ajratish, energiyani tejash kabi ekologik ko'nikmalarni amaliy holda oson va tushunarli yetkazishimiz mumkin. Bu dastur o'quvchilarni yoshlikdan ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy vosita ham bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

(REFERENCES)

1. Aslanova O. Boshlang'ich sinflarda tafakkur tezligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. Qarshi. Nasaf. -147 b.
2. Umumiy o'rta ta'limning MILLIY O'QUV DASTURI. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi. Toshkent-2020.
3. Jon Vuk, Kong, Kaufman, Looi, Int. J. Comput.-Support. Collab. Lern. 2011, 6, 9- 37. (Google scholar).
4. Hasanova G.I., Mahmudova Z.I. (2024) Green schools: A brief review. Green economics, 2(2), 178-183 <https://doi.org/10.624/ge22.178>
5. Gyanodaya Vidya Mandir, Green schools practices: A potential tool towards sustainable development. -63-64 b.
6. Hasanov R.I, Safarali A.J. (2024). Education for sustainable development: A review. Green economics, 2(1), 102-111.